


2020-yil 1-fevral holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(former va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning 1-fevral holatiga 89055 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,9 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13680 ta (16,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 85434 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,3% savdo, 17,6% sanoat, 8,0% qurilish, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0% tashish va saqlash, 3,8% axborot va aloqa, 1,8% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari hamda 31,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11846 ta), Chilonzor (11424 ta), Mirzo Ulug'bek (9875 ta), Olmazor (9106 ta), Shayxontohur (8757 ta), Uchtepa (8172 ta), Yakkasaroy (7820 ta) va Mirobod tumanlari (7762 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6840 ta), Sirg'ali (5345 ta) hamda Bektemir (2108 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 85434 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13680 ta (16,0%) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11123 ta), Chilonzor (10982 ta), Mirzo Ulug'bek (9625 ta), Olmazor (8914 ta), Shayxontohur (8281 ta), Uchtepa (7866 ta), Yakkasaroy (7688 ta) va Mirobod tumanlari (7371 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6341 ta), Sirg'ali (5186 ta) hamda Bektemir (2057 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning yanvar oyida 1961 ta korxon va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 889 birlikka kamdir.


2016–2020-yillarning yanvar oylarida yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (260 ta), Chilonzor (244 ta), Yunusobod (244 ta), Shayxontohur (204 ta), Mirzo Ulug'bek (195 ta), Olmazor (172 ta) va Sirg'ali (169 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yakkasaroy (150 ta), Yashnobod (131 ta), Mirobod (113 ta) hamda Bektemir (79 ta) tumanlarida korxon va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan
tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (963 ta), sanoat (205 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (155 ta), qurilish (154 ta), tashish va saqlash (65 ta), axborot va aloqa (65 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (25 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga 79656 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 62170 ta, xususiy korxonalar – 13111 ta, oilaviy korxonalar – 3028 ta, unitar korxonalar – 610 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 229 ta va boshqalar 508 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 62170 tani tashkil etib, ulardan 59835 tasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 10689 taga yoki 17,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar oyida 1447 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 333 birlikka kamdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda


	01.02.2020 yil		2020-yil yanvar oyida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	62170	59835	1447

shundan:

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari	678	639	9
Sanoat	11812	11409	169
Qurilish	6268	6042	144
Savdo	17035	16427	656
Tashish va saqlash	3094	2995	58
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4623	4390	111
Axborot va aloqa	2698	2581	53
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1089	1068	22
Boshqa turlari	14873	14284	225

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko‘p jamidagi ulushi savdo 27,5%, sanoat 19,1%, qurilish 10,1% hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 7,3% ga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari esa tashish va saqlash faoliyat turlarida 5,0%, axborot va aloqa 4,3%, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 1,8% hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida 1,1% ga to‘g‘ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining tumanlar bo‘yicha taqsimoti, birlikda
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



■ mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ■ xususiy korxonalar
■ oilaviy korxonalar ■ boshqalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 75662 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 17,4% ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar

Toshkent shahar **75662** **7433** **68229**

tumanlar:

Uchtepa 7211 433 6778

Bektemir 1893 255 1638

Yunusobod 9760 867 8893

Mirzo Ulug‘bek 8368 873 7495

Mirobod 6241 781 5460

Shayhontohur 7146 676 6470

Olmazor 8146 721 7425

Sirg‘ali 4701 402 4299

Yakkasaroy 6938 847 6091

Yashnobod 5565 685 4880

Chilonzor 9693 893 8800

2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonidagi tumanlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Eng katta ulush
ulush

Eng kichik



Yunusobod
tumani
12,9%



Yakkasaroy
tumani
9,2%



Chilonzor tumani
12,8%



Mirobod tumani
8,2%



Mirzo Ulug'bek tumani
11,1%



Yashnobod tumani
7,4%



Olmazor tumani
10,8%



Sirg'ali tumani
6,2%



Uchtepa tumani
9,5%



Bektemir tumani
2,5%




Shayhontohur tumani
9,4%

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9760 tasi (12,9%) Yunusobod, 9693 tasi (12,8%) Chilonzor, 8386 tasi (11,1%) Mirzo Ulug'bek hamda 8146 tasi (10,8%) Olmozor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 75662 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 21561 ta (28,5%) – savdo, 14991 ta (19,8%) – sanoat, 6817 ta (9,0%) – qurilish, 6056 ta (8,0%) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3386 ta (4,5%) – tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasi, 3170 ta (4,2%) – axborot va aloqa sohasi, 1312 ta (1,7%) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 810 ta (1,1%) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, shuningdek 17559 tasi (23,2%) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar oyida 1902 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 883 taga birlikka kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari Uchtepa (252 ta), Chilonzor (240 ta), Yunusobod (232 ta), Shayxontohur (201 ta), Mirzo Ulug'bek (187 ta), Olmazor (168 ta) va Sirg'ali (165 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (150 ta), Yashnobod (131 ta), Mirobod (113 ta) hamda Bektemir (79 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko'p soni savdoda – 962 ta, sanoatda – 205 ta, qurilishda – 154 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 152 ta, tashish va saqlashda – 615 ta hamda axborot va aloqada – 65 ta tashkil etilgan. Eng kamida esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 24 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida – 12 ta tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 2958 tani tashkil etib, ulardan 2814 tasi yoki 95,1 %

faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 22,6 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot (birlikda)

	01.02.2020 y.		2020-yil yanvar
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Toshkent shahri	3028	2866	74
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	463	443	5
Bektemir	89	88	8
Yunusobod	357	332	11
Mirzo Ulug'bek	225	217	5
Mirobod	171	151	
Shayxontohur	413	384	6
Olmazor	431	418	16
Sirg'ali	186	181	6
Yakkasaroy	150	149	9
Yashnobod	256	228	5
Chilonzor	287	275	3

Oilaviy korxonalarining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 40,5% yoki 1160 tasi sanoat, 19,9% yoki 569 tasi savdo, 18,2% yoki 529 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,6% yoki 75 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,6% yoki 47 tasi axborot va aloqa, 1,5% yoki 42 tasi qurilish, 1,0% yoki 30 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0% yoki 28 tasi tashish va saqlash hamda 13,4% yoki 386 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, %




Agarda, 2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Toshkent shahri	74	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	5	6,8
Bektemir	8	10,8
Yunusobod	11	14,9
Mirzo Ulug'bek	5	6,8
Mirobod	-	-
Shayxontohur	6	8,1
Olmazor	16	21,6
Sirg'ali	6	8,1
Yakkasaroy	9	12,2
Yashnobod	5	6,8
Chilonzor	3	4,1

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Olmazor (16 ta), Yunusobod (11 ta), Yakkasaroy (9 ta), Bektemir (8 ta), Sirgʻali (6 ta) va Shayxontohur (6 ta) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Aksincha, Uchtepa (5 ta), Yashnobod (5 ta) Mirzo Ulugʻbek (5 ta) hamda Chilonzor (3 ta) tumanlarida ularning tashkil etish koʻrsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ulushi, %



Savdo



Sanoat



Yashash va ovqatlanish
xizmatlari



Axborot va
aloqa



Tashish va saqlash



Boshqa turlari


Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,6% yoki 33 tasi savdo, 22,9% yoki 17 tasi sanoat, 20,3% yoki 15 tasi yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar, 1,4% yoki 1 tasi axborot va aloqa, 1,4% yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,3% yoki 1 tasi qishloq, oʻrmon va

baliq xo‘jaliklari hamda 8,1% yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-fevral holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6455 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1488 taga yoki 23,1%ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1093 ta (jamidagi ulushi 16,9%), Yakkasaroy – 998 ta (15,5%), Yunusobod – 881 ta (13,6%), Mirzo Ulug‘bek – 777 ta (12,0%), Chilonzor – 728 ta (11,3%), Yashnobod – 527 ta (8,2%) va Shayxontohur – 465 ta (7,2%) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor – 347 ta (5,4%), Sirg‘ali – 261 ta (4,0%), Uchtepa – 223 ta (3,5%) hamda Bektemir – 155 ta (2,4%) tumanlarida tashkil etilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining o‘shish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining 2740 tasi qo'shma, 3715 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




X

orijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalar ning tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6455	2740	3715
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	223	84	139
Bektemir	155	86	69
Yunusobod	881	392	489
Mirzo Ulug'bek	777	359	418
Mirobod	1093	341	752

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6455	2740	3715
Shayxontohur	465	229	236
Olmazor	347	184	163
Sirg‘ali	261	141	120
Yakkasaroy	998	380	618
Yashnobod	527	249	278
Chilonzor	728	295	433

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar oyining yakunlari bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 153 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko‘paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Mirobod (27 ta), Mirzo Ulug‘bek (25 ta), Yakkasaroy (20 ta), Yunusobod (20 ta), Chilonzor (17 ta), Uchtepa (10 ta) va Sirg‘ali (10 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shayxontohur (9 ta), Olmazor (8 ta), Yashnobod (5 ta) va Bektemir (2 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya
Federatsiyasi - 30 ta.



Boshqalar - 48 ta.



Xitoy Xalq
Respublikasi - 25 ta.



Turkiya
Respublikasi- 21 ta.



Qozog'iston
Respublikasi - 18 ta.




Koreya
Respublikasi - 11 ta.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 30 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 25 ta, Turkiya Respublikasi – 21 ta, Qozog‘iston Respublikasi – 18 ta, Koreya Respublikasi – 11 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 48 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2020-yilda Afg‘oniston Respublikasi, AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Hindiston Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo‘shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 63 tasi savdo, 31 tasi sanoat, 14 tasi qurilish va 45 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda



MDH davlatlari ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Jami	shundan:	
	Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Rossiya Federatsiyasi	30	11	19
Qozog‘iston Respublikasi	18	7	11
Ozarbajon Respublikasi	5	1	4
Tojikiston Respublikasi	3	-	3
Gruziya Respublikasi	2	-	2

MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi – 19,6%, Qozog‘iston Respublikasi – 11,8 %, Ozarbajon Respublikasi – 3,3%, Tojikiston Respublikasi – 1,9%, Gruziya Respublikasi – 1,3 % ga to‘g‘ri kelmoqda.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo‘limi
Ye.V.Yegorova
tel.: 71-230-88-31